

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING OILADA BOLA TARBIYASI HAQIDAGI QARASHLARI

Saidbekova Feruza Anvarbek qizi
Alfraganus universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq mutafakkirlarining oilada bola tarbiyasi haqidagi qarashlari, oilaviy munosabatlarni tartib-intizomga asoslangan holda olib borish, oilaviy tarbiya bola hayotida muhim oʻrni, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash toʻgʻrisida batafsil fikr yuritilgan.

Kalit soʻzlar: oila, bola tarbiyasi, tartib-intizom, odob-axloq, yuksak axloqiy munosabatlar, maʼnaviy-maʼrifiy yetuklik.

Kirish:

Maʼlumki, oila ijtimoiy hayotning doimiy ekanligini avlodlarning davomiyligini, tarbiyaning bosqichma bosqichligini boshqaradigan kelajak avlod uchun farzandlar qanday boʻlib yetishishiga oʻz tasirini oʻtkazadigan joy sanaladi. Jamiyatning iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy va ijtimoiy takomillanishi oilada bolalar tarbiyasi bilan bevosita uzviy bogʻliq. Har bir inson dastlab shakllanishni oiladan rivojlantiradi. Oila mehr - muhabbat, yaqinlik, birdamlik, manbaidir. Ana shu milliy qadriyatlar yordamida jamiyat takomillashib boradi. Haqiqatdan ham asrlar mobaynida sharqona va milliy tarbiyada shaxsning umuminsoniy va umummadaniy dunyoqarashi shakllanishi oiladan boshlanadi. Inson farzandining milliy tarbiyasi yordamida manaviy tomondan salohiyati takomillashib boradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Oilaviy munosabatlar va bu sohaga doir qarashlar tizimida Sharq mutafakkirlaridan Abu Ali ibn Sinoning pedagogik va psixologik qarashlari ijtimoiy asosda qurilgan boʻlib, u bola tarbiyasida umuminsoniy tamoyilining qoʻllanilishini yoʻqlab chiqqan va tarbiyachi ota-onalarga bolan qattiq tana jazosidan koʻra, shaxsiy ibrat yordamida tarbiyalash maʼqulligini uqtirgan. Axloqiy tarbiya masalalarida alloma oilaning oʻrnini alohida taʼkidlangan. Oila va oilaviy munosabatlar masalasi uning “Tadbiri manzil” asarida oʻziga xos tarzda bayon qilingan. Ibn Sinoning bola tarbiyasi, tarbiya psixologiyasi va rahbarlarga qoʻygan mazkur talablari oʻsha vaqtda qanchalik taraqqiyparvar va kerak boʻlsa, bizning hozirgi kunimizda ham u oʻz kuchini hali yoʻqotgani yoʻq.

Darhaqiqat, oilaviy tarbiya bola hayotida asosiy oʻrin tutadi. Oilaning bolalarga tarbiyaviy taʼsir doirasi ijtimoiy taʼsir doirasi singari oʻta kengdir. Oila bolalarni Vatanga muhabbat, ota-ona va atrofdagilarga sadoqat, mehnat va xalq boyliklariga ongli munosabat, nuqsonlarga murosasizlik, yuksak axloqiy va maʼnaviy sifatlarni

rivojlantirishda, turmushga, ijtimoiy faoliyatga tayyorlashda yuqori imkoniyatlarga egadir. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bu borada buyuk Sharq mutafakkirlarining farzandlar tarbiyasi borasidagi boy ma'naviy merosi va undan samarali foydalanish katta ijobiy natija berish bilan birga katta ma'naviy manba bo'lib xizmat qiladi.

Imom Muslim rivoyat qilgan Hadisi sharifda: "Bolalaringizga odob beringlar va odoblarini chiroyli qilinglar", deyiladi. Farzand ta'lim-tarbiyasi xususida Imom G'azzoliy o'zining "Ihyou ulumud din" asarida —Bola – ota-ona qo'lidagi omonat. Uning qalbi turli naqsh va rasmlardan xoli. Qanday naqsh solinsa, qabul qiladi... Agar yaxshilikka undalsa va o'rgatilsa, saodatli bo'ladi. Ota-onasi hamda odob, ta'lim-tarbiya bergan ustozlar uning savobiga sherik bo'ldi..." deb yozadi.

Natijalar:

Bir so'z bilan aytganda, azal-azaldan xalqimizning ilm-u fan, ijod-u mehnatga rag'bati yuqori bo'lib, o'zining yuksak ma'naviyati, imon-e'tiqodi, milliy g'ururi, shuningdek umuminsoniy qadriyatlarga yo'g'rilgan go'zal odob-axloqi bilan doimo ibrat bo'lgan. Shunday ekan, beg'ubor va muhtasham orzu-umidli yoshlarimiz yaratilayotgan sharoit va imkoniyatlardan o'z vaqtida oqilona foydalanib, Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz yuksalishiga hissa qo'shadigan farzandlar bo'lishiga ishonamiz. Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e'tibor qaratadi.

Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk kishi bo'lib o'sishiga ishonadi. Albatta, bolani juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq joiz. Tarbiya insonga o'zida yaxshi odat va fazilatlar hosil qilishga yordam beradi. Inson ta'lim-tarbiyasi masalasida esa, albatta, ustoz-u murabbiylarning o'rinlari beqiyos. Bundan tashqari, Navoiy ta'biri bilan aytganda, agar shogird shayxulislomdek buyuk martabaga ko'tarilganda ham ustozini undan rozi bo'lsagina, Tangri ham rozi bo'ladi: Shogird agar shayx ul-islom, agar qozidur, agar ustod andin rozidur –tengri rozidur.

Muhokama:

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda, dastlabki o'rinda, ularning intellektual salohiyati va ma'naviyatini oshirish, orzu-umidlarini to'g'ri yo'naltirish, ezgulik, oila va Vatanga muhabbat, ularning ong-u shuuriga insof, iymon, e'tiqod, oriyat, oiladagi burch, majburiyat, mas'uliyat tushunchalarining mazmun-mohiyatini singdirishga e'tibor berish kerak. Bu borada, eng avvalo, ota-onalar farzandlarining birinchi tarbiyachilari sifatida mas'uldirlar. Bu mas'uliyat esa ota-onalarning o'zlaridan ma'naviy-ma'rifiy yetuklikni, yaxshi sifatlarga ega bo'lishlikni talab qiladi. Ana shundagina ular farzandini barkamol inson qilib tarbiyalaydi va oilaviy hayotga to'g'ri yo'naltira oladi. Buyuk alloma Nosriddin Rabg'uziyning fikricha, "Ota-ona ezgu bo'lsa, uning ezguligi yetti urug'-aymog'iga yetadi. Buning uchun ular farzandlarining ko'z o'ngida shaxsiy namuna, ibrat ko'rsatishlari kerak bo'ladi".

Oila avvaldan Sharq xalqlari hayotida eng muhim qadriyat sifatida jamiyatga ma'nan yetuk va jismonan barkamol insonni yetkazib beruvchi manba vazifasini o'tab kelgan. Shu bilan bir qatorda, islom dinida oilaviy munosabatlar, nikohning manfaatlari, er va xotinning burch va vazifalari, oilada farzand tarbiyasi kabi masalalarga nihoyatda katta ahamiyat berilgan. Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, oilaviy munosabatlarni tartib-intizomga asoslangan ravishda olib borish jamiyat taraqqiyotiga, unda barkamol insonlar salmog'ining oshishiga xizmat qiladi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, ota-ona farzand tarbiyasiga u dunyoga kelmasdan oldin kirishishi, ular dunyo yuzini ko'rgandan keyin esa, go'zal axloqiy sifatlarni ular ongiga singdirish borasida g'ayrat ko'rsatishi, dunyo va oxirat saodatiga erishishda yordamlashuvchi diniy va dunyoviy bilimlarni o'rgatishi kerak. Binobarin, oila muhiti - bu qandaydir tarbiya vositasi emas, balki ota-onalarning va katta yoshdagi kishilarning har tomonlama olib boradigan tarbiyaviy ish natijalari, oila a'zolarining ozaro yuksak axloqiy munosabatlarining yigindisi va nihoyat kattalarning bolalarga ijobiy ta'sir ko'rsatish namunasi natijasidir. Oila tarbiyaning asosi, makoni va poydevoridir. Bolaning kim bo'lib yetishishi, asosan, oiladagi muhitga –tarbiyaviy ta'sirga bog'liq. Oila tarbiyasining samarasi bevosita oilada ota-onalar obro'si va shaxsan namuna ko'rsatishlariga bog'liq.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoki axloq. –T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. — 97 b
2. To'raqulov X.A.. Bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatiga tayyorlashda g'oyaviy – axloqiy tarbiya. T.: Fan va texnologiya. 2010 y. 136 b.
3. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur. Toshkent, 2000.
4. Shodmonova Sh.S. Oilada kichik maktab yoshidagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari: Ped.fanlari nomzodi. Dis./Nizomiy nomidagi pedagogika universiteti. – Toshkent, 2001.
5. Inomova M.O. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari doktori... dis./ Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti. –Toshkent, 1998.